

IJTIMOIY INTEGRATSIYA VA MIGRATSIYA

Matkarimova Jamila Durdiyevna

TDTrU f.f.d.(DSc), v.b.professor

Ahmadjonova Shahnozabonu

TDTrU Sotsiologiya yo`nalishi

2 bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy integratsiya va migratsiya jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Ijtimoiy integratsiya turli etnik guruhlar va madaniyatlar o‘rtasida o‘zaro tushunish va hamkorlikni rivojlantirish jarayoni bo‘lsa, migratsiya odamlarning bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib o‘tishini ifodalaydi. Maqolada migratsiyaning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sabablari va uning ijtimoiy integratsiyaga ta’siri muhokama qilinadi. Yangi kelganlar va mahalliy aholi o‘rtasidagi aloqalar, madaniy almashinuv va iqtisodiy faoliyotning o‘sishi kabi ijobiy jihatlar bilan bir qatorda ijtimoiy keskinlik va madaniy farqlar kabi salbiy jihatlar ham ko‘rib chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi migratsiyani boshqarish va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish zarurligini ta’kidlashdan iborat. Natijada ushbu jarayonlar zamonaviy jamiyatlarning barqarorligi va rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatiladi va tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье анализируется взаимосвязь процессов социальной интеграции и миграции. Социальная интеграция - это процесс развития взаимопонимания и сотрудничества между различными этническими группами и культурами, а миграция представляет собой перемещение людей из одного места в другое. В статье обсуждаются экономические, политические и социальные причины миграции и ее влияние на социальную интеграцию. Наряду с положительными аспектами, такими как связи между вновь прибывшими и местным населением, культурный обмен и рост экономической активности, рассматриваются и отрицательные аспекты, такие как социальная напряженность и культурные различия. Основная цель статьи - подчеркнуть необходимость управления миграцией и усиления социальной интеграции. В результате будет показано и проанализировано, что эти процессы имеют важное значение для стабильности и развития современных обществ.

Abstract: This article analyzes the relationship between social integration and migration processes. Social integration is the process of developing mutual understanding and cooperation between different ethnic groups and cultures, while migration means the movement of people from one place to another. The article discusses the economic, political, and social causes of migration and its impact on social integration. Along with positive aspects, such as contacts between newcomers

and the local population, cultural exchanges, and increased economic activity, negative aspects, such as social tension and cultural differences, are also being considered. The main goal of the article is to emphasize the need to strengthen migration management and social integration. As a result, it will be shown and analyzed that these processes are important for the stability and development of modern societies.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy integratsiya, migratsiya, identifikatsiya, integratsiya, jamiyat, individlar va guruhlar, immigrantlar, assimilyatsiya nazariyasi, tashqi mehnat, agentlik, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy.

Ключевые слова: Социальная интеграция, миграция, идентификация, интеграция, общество, индивиды и группы, иммигранты, теория ассимиляции, внешний труд, агентство, социальное, экономическое, политическое.

Keywords: Social integration, migration, identification, integration, society, individuals and groups, immigrants, assimilation theory, external labor, agency, social, economic, political.

Ijtimoiy integratsiya- bu iqtisodiy integratsiya va identifikatsiya integratsiyasi bilan birga bo'lib, ularni qabul qilanayotgan jamiyatda yangi kelganlarning tajribasining uchta asosiy o'lchovlardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy integratsiyaning yuqori darajasi esa guruhlar o'rtasidagi yaqinroq ijtimoiy masofaga va izchil qadriyatlar va amaliyotlarga yordam beradi. Til, tabaqa, e'tiqod va hokazolardan qat'i nazar, o'zligini yo'qotmasdan turli etnik guruhlarning birlashtirish jarayoni desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Bu jamiyat hayotining barcha sohalariga kirish imkonini beradi va segregatsiyani yo'q qilishini ko'rishimiz mumkin. Ijtimoiy integratsiya dinamik va tizimli jarayonlardan biri bo'lib, unda barcha a'zolar tinch ijtimoiy munosabatlarga erishish va saqlash uchun muloqotda ishtiroy etishadi. Ijtimoiy integratsiya majburiy assimilyatsiya degani ham emas. Ijtimoiy integratsiya ijtimoiy qaram-qarshilik, ijtimoiy parchalanish, ijtimoiy chetlanish va qutblanish sharoitlarini tuzatish, shuningdek, tinch ijtimoiy munosabatlarda ijtimoiy integratsiya sharoitlarini kengaytirish va mustahkamlash orqali tinch ya'ni xavfsiz, barqaror va adolatli jamiyat sari harakat qilish zarurligiga qaratilgan hisoblanadi.

Integratsiya o'zi ilk martaba 1921-yilda Valle va Burgess olimlari tomonidan ishlab chiqilgan assimilyatsiya tushunchasi orqali o'rganilgan. Ular buni „shaxslar va guruhlar boshqa shaxslar va guruhlarning xotiralari, his-tuyg'ulari va munosabatlariiga ega bo'lishlari va o'zlarining tajribasi va tarixini baham ko'rish orqali ular bilan umumiy madaniy hayotga qo'shilish jarayoni“ deb keng qamrovda ta'riflab o'tishgan [1]. Bejizga yuqorida shaxslarga to'xtalib ularga chuqur tahlillar qilib chiqishmagan, chunki har bir shaxsning guruhlarga bo'lgan xotiralari-yu, his-tuyg'ulari o'zgacha bo'ladi. Kimlardadir ushbu jarayonda esa ijobjiy va salbiy fikr uyg'otishi ham bu ta'biiy hol. Ba'zi olimlar esa immigrantlarni mezbon jamiyatga keyingi avlodlar davomida

iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan assimilyatsiya qilinishini ta'kidlab o'tishgan, assimilyatsiya nazariyasini taklif qilgan bo'lsalar, boshqalari esa multikulturalizm nazariyasini ishlab chiqadilar va immigrantlar o'zlarining etnik o'ziga xosliklarini shakllantirish uchun integratsiya jarayoni orqali saqlab qolishlari mumkinligini taxmin qilishgan. Assimilyatsiya nazariyasidan kelib chiqqan holda esa, uchinchi guruh olimlari segmentlangan integratsiya nazariyasini taklif qilishadi, bunda migrantlarning turli guruhlari o'zlarining individual, kontekstual va tarkibiy omillariga qarab turli o'lchamlarda yuqoriga yoki pastga harakatlanishning alohida trayektoriyalarini kuzatishi mumkinligini ta'kidlab o'tishadi.

“Ijtimoiy integratsiya” atamasini ilk martaba fransuz sotsiolog Emil Dyurkgeymnning ishida qo'llanganini ko'rishimiz mumkin [3]. Dyurgeym nima uchun ba'zi ijtimoiy tabaqalarda o'z joniga qasd qilish darajasini boshqalardan ko'ra yuqori ekanligini tushunishni xohlaydi. Dyurkgeym jamiyat shaxslarga nisbatan kuchli kuch ta'sir qiladi, deb hisoblagan. U xalqning e'tiqodi, qadriyatlari va me'yorlari jamoaviy ongning, bir-birini va dunyoni tushunishning umumiyligi usulini tashkil qiladi, degan xulosaga kelgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ijtimoiy integratsiya bo'limi mavjud bo'lib unda, Ijtimoiy siyosat va rivojlanish bo'limi (Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'limi) ni o'z ichiga oladi. Shuningdek, u har chorakda bir nashr „*Ijtimoiy integratsiya siyosati haqida xabarnoma “chiqaradi*. BMTning Sivilizatsiyalar Alyansi tashabbusi migratsiya va integratsiyaning madaniyatlararo tushunishning kaliti sifatida ishlashini ham nazarda tutadi. Migratsiya va integratsiya bo'yicha onlayn hamjamiyat butun dunyo bo'ylab yaxshi amaliyotlarni ko'rsatadi.

Migratsiya – bu tabiiy va ilmiy-amaliy tadqiqotlarni talab etadigan, zamonaviy globallashuv davrida murakkab ko'rinish aks etib borayotgan jarayonlardan hisoblanadi. Ishchi kuchining dunyo miqyosida bir yerdan boshqa yerga ko'chib o'tishi xalqaro mehnat migratsiyasi deyiladi. Biroq bunda sotsial mobillik ro'y beradi. Mehnat migratsiyasi deyarli barcha milliy iqtisodiyotlarga xos jarayonlardan biri hisoblanadi. Biroq uning jadallik darjasini jahonning u yoki bu hududlarida sezilarli darajada farq qiladi. Mehnatkash-migrantlarning eng jadal oqimi esa ishchi kuchining eksport import qiluvchi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasida va tabiiy demografik o'qish sur'atida jiddiy farq bo'lgandagina kuzatiladi. Migratsiyaning asosiy to'rt yo'nalishlari ichida jami migratsiya oqimining hajmi bo'yicha esa rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlar sari ishchi kuchlarining ko'chishi birinchi o'ringa qo'yilgan. Mutaxassislar esa quyidagi migratsiya oqimlari haqida alohida ko'rsatkichlar ko'rsatib o'tishadi: G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarining o'rtasida, sobiq sotsiologik mamlakatlardan bozor iqtisodiyotli mamlakatlarga, rivojlanayotgan yoki o'tish davrida iqtisodiyotli davlatlar o'rtasida (masalan. Janubiy Amerika chegarasida, Ukrainadan Rossiyaga). Ishchi kuchi migratsiyasining yana bir yo'nalishi, ya'ni rivojlangan mamlakatlardan

rivojlanayotgan yoki o'tish davri iqtisodiyotli davlatlarga migratsiya uchrab tursa-da, bu yo'nalishni tanlovchi migrantlar soni esa unchalik ko'pchilikni tashkil etmaydi va ular TMKlarning shahobchalari va sho'ba korxonalarida band bo'lган kadrlar, turli xayriya tashkilotlari va fondlari a'zolari, shuningdek, sarguzasht izlanuvchilar hamda tavakkalchilardan iborat bo'ladi. Ishchi kuchini o'ziga tortuvchi markazlar ichida eng yirik va uch yuz yildan beri mavjud bo'lган markaz mavjud bo'lib, bu Shimoliy Amerika (AQSh va Kanada) davlati hisoblanadi. Amerikalik statistiklarning ma'lumotlariga ko'ra, 90-yillar davomida belgilangan kvotalar soni 675 ming kishi bo'lishiga qaramay yiliga 1 mln.dan ortiq migrantlar AQShga kirib kelishini ta'kidlashadi. Migrantlarning o'ziga tortuvchi boshqa bir "ohangrabo" Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Ularga xorijiy ishchi kuchi jami aylanmasining to'rtdan bir qismidan ko'prog'i to'g'ri kelishining guvohi bo'lamiz. Bu hududda esa Fransiya (mamlakat aholisining 8 % xorijliklar), Germaniya (7,5 %) yetakchilik qilib kelmoqda. Bulardan tashqari Buyuk Britaniya, Belgiya, Niderlandiya, Shvetsiya, Avstriya ham ishchi kuchini qabul qilishda oldingi o'rindan joy olgan [2]. Mehnat migratsiyasining uchinchi yirik markazi esa– Avstraliya hisoblanadi. Avstraliya hukumati mamlakat hududining katta qismida aholi zichligi darajasining pastligi va uning tarkibida xitoy etnosi ulushining ko'payib borayotgani tashvishlantirib kelmqda. Shuning uchun ham Kanbodja tomonidan Avstraliya mamlakatiga – qit'aga oq irqga mansub aholini, asosan fertil (turmush qurish va farzand ko'rishga qodir) yoshdag'i ayollarning ko'chib o'tishini rag'batlantirish borasida chora-tadbirlar majmuasi e'lon qilingan. Yurtimizda har yili o'rta va maxsus, kasb-hunar muassasalarini 650 ming yosh bitiradi. Ularning chorak qismi esa oliy o'quv yurtlariga qabul qilinsa, qolgani mustaqil ravishda, jumladan, xorijdan ish qidira boshlashlarining ham guvohi bo'lmoqdamiz. Ushbu talabni qondirish maqsadida O'zbekiston iqtisodiyotida yiliga o'rtacha 300 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratilib kelinmoqda. Nafaqat, O'zbekistondan balki boshqa davlatlarga ish izlab chiqayotgan migrantlarning 43 %dan ortig'ini o'rta ma'lumotli, qariyb 29 %ni tugallanmagan o'rta ma'lumotlilar tashkil qilmoqda. Ularning aksariyati xorijda o'z huquq va qonuniy manfaatlarini to'la to'kis himoya qila olmaydi. Bunga, birinchi navbatda, til bilmasligi sabab bo'ladi. Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, mehnat migratsiyasi masalasida ham bir qator muammolar mavjud. Bu muammoning oldini olish mumkinmi? degan savol ham tug'iladi. Albatta, Yurtimizda horijga ishslash uchun ketish istagidagi mehnat migrantlarini til va kasb-hunarga o'qitish, xavfsizligi va kafolatlangan ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha yangi tizim joriy etilgan va yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Samarali migratsiya siyosatini amalga oshirish, horijda mehnat qilayotgan fuqarolarimizga har jihatdan madad berish qonun manfaatlarini himoya qilish bo'yicha uzlusiz ishlarni davom ettiramiz"[5] deydi yurtboshimiz. Ammo aksar yurdoshlarimiz esa Tashqi mehnat

migratsiyasi agentligi xizmatlaridan foydalanishmaydi. Chunki chiqish tartibiga ko'ra, mehnat migratsiyasi uchun chet elga ketayotgan shaxslarning majburiy kasbiy tayyorgarligi to'g'risida sertifikat talab qilinadi. Shu boisdan ham, ko'pchilik fuqarolar xavfsizligini o'ylamay, Rossiya yoki Qozog'istonga borishni afzal bilishadi. Oxirgi ikki yilda Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan esa 70 ming kishi rivojlangan davlatlarga yuborilgan. Lekin ayrim odamlar malaka talab qilmaydigan o'lkalarga o'zlari ham mustaqil ravishda ketishyapti. Ularning mehnat va yashash sharoitlari, kasbi, daromadi turlicha belgilanadi. Bugungi kunda 28 ta davlatning 300 ga yaqin ish beruvchi va rekruting agentligi bilan O'zbekistondan ishchi kuchini jalb qilish maqsadida hamkorlik shartnomasi imzolangan. 2024-yilga kelib esa 16 ta, jumladan, iqtisodiy rivojlangan 10 ta davlat ish beruvchilaridan O'zbekiston fuqarolarini ishga joylashtirish uchun 160 mingta ish o'rni aniqlangan. Birgina Yevropa davlatlari bilan hamkorlikda esa 100 mingdan ortiq ish o'rinalariga yurtdoshlarimizni jalb qilish bo'yicha 30 dan ziyod loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda [6].

Ijtimoiy integratsiya va migratsiya o'rtasidagi bog'liqlik zamonaviy jamiyatlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Migratsiya jarayonlari esa, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liq holda, yangi kelganlarning mahalliy aholi bilan aloqalarini shakllantirib kelmoqda. Ijtimoiy integratsiya esa, turli madaniyatlar va etnik guruhlar o'rtasida o'zaro tushunish va hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ushbu maqolada ko'rsatilganidek, migratsiya ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishi mumkin, chunki u madaniy almashuvni va iqtisodiy faoliyatni ham oshiradi. Biroq, bunday jarayonlar bir vaqtning o'zida ijtimoiy taranglik va madaniy farqlarni keltirib chiqarishi ham mumkin. Shuning uchun ham migratsiyani boshqarish va ijtimoiy integratsiyani rivojlantirish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish zarur bo'ladi. Natijada esa, ijtimoiy integratsiya va migratsiya jarayonlari zamonaviy jamiyatlarning barqarorligi va rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qilib qiladi, shuningdek, ijtimoiy tinchlik va birlikni ta'minlashga yordam beradi desak bo`ladi.

Adabiyotlar:

1. Alba, Richard; Nee, Victor (1997). „Rethinking Assimilation Theory for a New Era of Immigration“. *International Migration Review*. 31, 4-jild, № 4. 826–874 P.
2. Park, Robert E. [Introduction to the Science of Sociology](#). Chicago, IL: University of Chicago Press, 1969. [735](#) P.
3. Dyurkheim E. Social Integration (en). *Social Sci LibreTexts*. [https://socialsci.libretexts.org/Bookshelves/Sociology/Introduction_to_Sociology/Sociology_\(Boundless\)/01%3A_Sociology/1](https://socialsci.libretexts.org/Bookshelves/Sociology/Introduction_to_Sociology/Sociology_(Boundless)/01%3A_Sociology/1).
4. Nazarova G.G., Haydarov N.X. Xalqaro iqtisodiy munosabatlari.–T.: TDIU, 2005. 222-224 betlar.

5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. 208-b.
6. Xo'jayeva M. Mehnat migratsiyasi muammolari. Endi xorijga ketayotgan migrantlarning harajatlari qisman qoplanadi // Yangi O'zbekiston, 2024 yil 6 aprel, №69 (1130).

